O`ZBEK TIL MADANIYATIDA HAMDARDLIK

Mirzoyeva Durdona Husan qizi
Termiz davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada o`zbek tilidagi hamdardlik nutqiga alohida to`xtalib o`tilib, hamdardlik ifodalovchi lisoniy vositalar keltirilgan. Shuningdek, o`zbek tilidagi madaniy nutq ko`rinishlari sinflashtirilgan. Bundan tashqari, nutq madaniyati, nutqiy aktlar borasida ham fikr yuritilgan.
**Kalit so`zlar:** til, madaniyat, nutq madaniyati, nutqiy muloqot, nutqiy akt, nutqiy vaziyat, etik-estetik nutq ko`rinishlari, hamdardlik nutqi, hamdardlik bildiruvchi lingvistik vositalar.
Til aloqa quroli, jamiyat tarixi va ma`naviyati ko`zgusidir. Til nafaqat kommunikatsiya vazifasini bajaradi, balki ma`lum bir til zamirida o`sha xalqning madaniyati, e`tiqodi va ma`naviy-ma`rifiy hayoti ham yotadi. Madaniyat tushunchasi nihoyatda keng qamrovli bo`lib, u jamiyat hayoti va faoliyatidagi deyarli barcha jarayon va voqealarni qamrab oladi. Tilning bor imkoniyati nutq orqali amalga oshadi, nutqsiz tilni tasavvur etish qiyin. Hatto bunday til o`limga mahkumdir.
Nutq madaniyati jamiyat hayotining, jamiyat madaniyatining o`ta muhim ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeligi, ko`rinishi sifatida alohida ahamiyatga egadir. U fikr almashish, muomala, so`zlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni o`z ichiga oladi, ular orqali voqelikka aylanadi, ta`sir qilish quvvatiga ega bo`ladi. [2]
Ma`lumki, o`zbek tili butunjahon tillaridan o`ziga xosligi, sinonimlar bazasining ko`pligi va bir qator jihatlariga ko`ra alohida ajralib turadi. Shu davrga qadar tilimizning leksik va grammatik tomonini ochishga bag`ishlangan ko`plab izlanishlar, tadqiqotlar qilindi. Yaqin yillardan e`tiboran o`zbek tilini psixolingvistik, pragmalingvistik, sotsiolingvistik aspektlardan turib tahlil qilishga, o`rganishga bo`lgan qiziqish va izlanishlar tobora ortib bormoqda.
Kunimizda nutqning ekspressivligi masalasi chuqur va atroflicha o`rganilmoqda. “Expresso” so`zi lotin tilida “ifodalash” degan ma`noni anglatadi. Amerika tilshunosi Jon Rojers Serl nutqiy aktlar majmuasining bir guruhini ekspressivlar deb nomlaydi. Serlning fikriga ko`ra, ekspressivlar maqsadli nutqiy faoliyatning bir turi bo`lib, ular adresat xatti-harakatiga nisbatan so`zlovchining muayyan psixologik holatini ifodalaydi. Shuningdek, mazkur nutqiy akt turi ijtimoiy etiket qoidalarini ham o`z ichiga oladi. [1]
Ushbu nutqiy akt turini tilshunos olimlar turlicha nomlashgan. Masalan, V.G.Gak ularni “emotsional baho nutqiy akti” deb qo`llasa [5], I.V.Trufanova “ekspressiv-emotsional nutqiy aktlar” [7] sifatida o`rganishni taklif qiladi. Bundan tashqari, ko`pgina jahon tilshunoslari tomonidan nutqiy akt turlari bir qancha guruhlarga bo`lib o`rganilgan. L.P.Chaxoyan minnatdorchilik, hamdardlik va kechirim nutqini ijtimoiy etiketlar tarkibiga kiritadi.[8] Nutqiy aktning barcha turlari adresantning nutqiy vaziyatga bog`liq ravishda u yoki bu ruhiy va psixologik holatini, munosabatini ifodalash maqsadida nutq jarayonida ishlatiladi.
Ekspressiv so`zlarni tabiatiga ko`ra uchta kichik guruhga ajratish mumkin. Bular:
1) ijobiy his-tuyg'ularni ifodalovchi nutqiy aktlar: minnatdorlik, hamdardlik, ma`qullash,maqtov.
2) salbiy his-tuyg'ularni ifodalovchi nutqiy aktlar: g'azab, qoralash, malomat, norozilik, haqorat, masxara, kinoya, tahdid, e'tiroz, shikoyat, rad etish.
3) ham ijobiy, ham salbiy his-tuyg'ularni ifodalovchi nutqiy aktlar: hayrat, baho, kechirim. [1]
O`zbek tili o`zbek xalqining nafaqat aloqa-aralashuv quroli, balki madaniyatining o`ziga xos belgisi va uni amalda ifoda etuvchi vositalarning eng asosiylaridan biridir. Tilimizdagi nutqiy birliklar bir qancha holatlarda, nutq vaziyatlarida qo`llaniladi. Shunga ko`ra o`zbek tilidagi etik-estetik nutq ko`rinishlarini quyidagicha guruhlashtirish mumkin:
1. Minnatdorchilik nutqi;
2. Kechirish nutqi;
3. Mulozamat nutqi;
4. Xushomad nutqi;
5. Salomlashuv nutqi;
5. Xayrlashuv nutqi;
6. Mehmondorchilik nutqi;

7. Olqish nutqi;
8. Tabrik nutqi;
9. Erkalash-suyish nutqi;
10. Izhor nutqi;
11. Haqorat nutqi;
12. Tanbeh nutqi;
13. Iltimos nutqi;
14. Ma`qullash nutqi;
15. Hazil nutqi;
16. Masxara nutqi;
17. Hayrat nutqi:
18. G`azab nutqi;
19. Maqtov nutqi;
20. Shikoyat nutqi;
21. Kinoya nutqi;
22. Tahdid nutqi;
23. Baho nutqi;
24. Hamdardlik nutqi.

"O`zbek tilining izohli lug`ati" da "hamdardlik" so`ziga "Kimsaning g`am-qayg`usi, dardiga sheriklik, birgalik his-tuyg`usi, shunday his-tuyg`uli holat", deya, "hamdardlik bildirmoq" so`ziga esa "1) Yaxshi gaplar bilan kimsaning dardini, xafaligini yozishga, unga tasalli berishga urinmoq, taskin bermoq; 2) Ko`ngil ko`tarish uchun yaqin kimsasi o`lgan kishining qayg`usiga sherik ekanligini bildirmoq",[4] sifatida ta`rif beriladi.

Bilamizki, insonlarga yordam berish, yaxshilik ulashish, yomon kunida yelkadosh bo`lish kabi fazilatlar o`zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan tuyg`ulardandir. Bu holat, tabiiyki, shu bilan bog`liq lisoniy birliklarning nutqda namoyon bo`lishiga zamin yaratgan. Insonlar dardini olish, ularga sherik bo`lish dinimizdagi eng savobli amallardan biri ekanligi uqtiriladi. Bu haqida bobomiz Alisher Navoiy ham:

Kimki bir ko`ngli buzug`ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka`ba vayron bo`lsa, obod aylagay,

deya insonlarga taskin-tasalli berish, ko`ngil so`rash, ko`nglini ko`tarishni Ka`bani qayta qurish bilan tenglashtiryapti.

O`zbek tilida hamdardlik bildiruvchi lingvistik vositalarni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Betob bo`lganda ishlatiluvchi birliklar: *"Sog`ayib keting", "Tezroq tuzalib keting", "Hali ko`rmagandek bo`lib ketasiz", "Otday chopqillab keting", "Boshingiz omon bo`lsin", "Bolalaringiz boshiga sog`-omon bo`ling, to`ylarida o`ynab-kulib yuring", "Bolalaringizga bosh bo`ling", "Ko`rgan-kechirganingiz shu bo`lsin", "Dard bergan Alloh shifosini ham beradi".*
2. Boshiga bir tashvish tushganda qo`llaniluvchi birliklar: *"Oyning o`n beshi qorong`i bo`lsa, o`n beshi yorug` bo`ladi", "Bosh omon bo`lsa, do`ppi topiladi", "Jon omon bo`lsa, mol topiladi", "Alloh ham sevgan bandasiga sinov beradi", "Muhimi, joningiz sog` bo`lsin", "Hali hammasi yaxshi bo`lib ketadi", "Boshing toshdan bo`lsin", "Hali yaxshi kunlar ham keladi".*
3. Ta`ziya bo`lganda ko`ngil so`rash maqsadida aytiluvchi birliklar: *"Alloh rahmatiga olsin", "Allohim sabr bersin", "Borgan joyi jannat bo`lsin", "Qabrlari nurga to`lsin", "Oxirati obod bo`lsin", "Qabr azobini yengillashtirsin", "Hisob-kitobini oson qilsin", "Jannat gullarini iskatsin", "Jannatiylardan qilsin", "Kavsar suvlarini ichishlik nasib qilsin", "Bu dunyoda qilgan savob-u amallari u dunyoda o`ziga nur bo`lib yog`ilsin", "Ortida qolganlarning o`rni mahkam bo`lsin", "Alloh tiriklarni o`z panohida asrasin".*
4. Mag`lubiyatga uchraganda foydalaniladigan nutqiy birliklar: *"Bo`sh kelma!", "Yaxshi ot keyin chopadi", "Ko`nglingni cho`ktirma!", "Hali yutuqlaring oldinda", "Inson yiqilib-yiqilib pishadi", "Olg`a qadam bos!", "Sen kuchlisan!", "Muvaffaqiyat ham, muvaffaqiyatsizlik ham Allohdan", "Ruhingni cho`ktirma!", "Alloh omadingni bersin!".*

Ushbu leksik birliklarning ma`lum bir nutq vaziyatida noverbal vositalar bilan birga qo`shib ifodalanishini ko`rish mumkin. Masalan, *boshini silab, yelkasiga qoqib, ko`zlariga boqib, qo`llarini ushlab,*

*peshonasidan, yuzlaridan o`pib yoki quchoqlagan holda* adresatning u yoki bu holatiga hamdardlik izhor qilinadi. Qolaversa, hamdardlik bildiruvchi lingvistik vositalarni yosh, jins, ijtimoy maqom kabi omillarga ko`ra ham bir qancha kichik guruhchalarga bo`lib o`rganish mumkin.

Ko`rinadiki, nutqiy muloqotda hamdardlik bildirish uchun qo`llaniluvchi leksik birliklarda o`sha xalqning ruhiyati, e`tiqodi, yashash tarzi, kundalik faoliyati o`z aksini topgan bo`ladi. Masalan, yuqorida keltirilgan ifodalarda “Alloh” so`zi ko`p o`rinlarda ishlatilgan. Bu holat esa bevosita o`zbek xalqining islomiy xalq ekanligi natijasidir. Yoki bo`lmasa, betob bo`lganda ishlatiluvchi “Otday chopqillab keting” ifodasida xalqimizning chorvachilik bilan shug`ullanishi, boshiga bir ish tushganda ishlatiluvchi leksik birliklar tarkibidagi “Bosh omon bo`lsa, do`ppi topiladi” maqolida esa o`zbek xalqining kiyinish tarzi, milliy hunarmandchiligi aks etgan.

Yuqorida keltirilgan misollar o`zbek tilining naqadar serqirra va yuksak lisoniy bazaga ega til ekanligidan dalolat beradi. Bunga misol sifatida o`zbek xalqini birgina o`zi bilan birgalikda bir tarmoqqa kiruvchi turk tili bilan solishtirish kifoyadir. Masalan, turk tilida betob bo`lgan insonni xabar olgani borilganda “Geçmiş olsun” ifodasi, ta`ziya marosimlarida esa “Başınız sağ olsun” ifodasi ishlatiladi. O`zbek tilida esa bu holatlarda aytiluvchi o`nga yaqin birliklarni ko`rib o`tdik. Bu kabi hamdardlikni ifoda etuvchi lingvistik birliklar soni, albatta, shevalar kesimida va hududlararo o`rganilganda ortib borishi tabiiydir.

Shu tariqa tilni faqatgina qurilish jihatidan o`rganibgina qolmay, unga turli aspektlardan nazar solish o`sha tilning yangidan yangi qiyofalari ochilishiga va tilning asosiy vazifasi to`laroq anglanishiga sabab bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. D. Haydarova Ekspressiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi (ilmiy maqola) Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (xalqaro ilmiy jurnal), 226-227-b.
2. R. Rasulov, Q. Mo`ydinov Nutq madaniyati va notiqlik san`ati (o`quv qo`llanma) Toshkent, 2005. 12-bet.
3. S. Mo`minov. O`zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari Toshkent, 2000.
4. O`zbek tilining izohli lug`ati. O`zbek milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2006-2008. 497-498-betlar.
5. *Гак В.Г.* К проблеме сопоставительно-типологического анализа речевого акта и текста // Сопоставительная лингвистика и обучение неродному языку. – М.: Наука, 1987. – С. 37-48.
6. Серль Дж. Классификация иллокутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике. Теория речевых актов. - 1986. - № 17. - С. 170 - 194.
7. Труфанова И.В. Прагматика несобственно-прямой речи. – М., 2000. – 568с.
8. Чахоян Л.П. О признаках высказывания // Значение и смысл речевых образований. – Калинин: Изд-во КГУ, 1979. – С. 121 - 126.